

## О‘QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

*Xrojiddinova Muattar Mansurovna*  
*Qo‘qon DPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limda kommunikativ texnologiyalar orqali nutq o‘stirish va amaldagi natijalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya, metod, muloqot, mavzular, diskussiya, innovatsion texnologiya, matn tahlili, matn yaratish, og‘zaki nutq, yozma nutq

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НАПРАВЛЕННЫЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У УЧАЩИХСЯ

*Хрождидинова Муаттар Мансуровна*  
*Базовый докторант Каканд ГПИ*

**Аннотация.** В данной статье обсуждается роль коммуникативных технологий в формировании вербальных речевых навыков в образовании и практические результаты их использования.

**Ключевые слова:** Технология, метод, общение, темы, дискуссия, текст, обработка текста, создание текста, устная речь, письменная речь.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING COMPETENCIES OF TEXT CREATING AMONGST STUDENTS

*Xrojiddinova Muattar Mansurovna*  
*Doctoral of Kakand SPI*

**Annotation.** This article discusses Nino part and its practical implications for the use of communication technology in the formation of oral speech skills in education.

**Key words:** Technologi, method, topic, debate, prob, text, word processing, word production, oral speech.

Dunyo rivojida integratsiya jarayoni bugungi kunda ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Axborotlashgan jamiyat davrida bilim va malakasining inson hayoti davomida qo‘llay olish ahamiyati birinchi o‘ringa chiqdi. Jamiyatimizga chuqur bilimli, malakali, tezkor va konstruktiv tarzda qaror qabul qila oladigan yoshlar zarur. Shu bois o‘qituvchi va o‘quvchining

shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi muhim jihatga aylanib, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishga katta e'tibor zarur. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni hayotga tayyorlashning sifatini oshirishga hamda ularning mustaqil kreativ ishlarini faollashtirishga ko'maklashadi. O'quvchilarning matn yaratish kompetentsiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajakda ularning kommunikativ kompeteniyasining jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta'lim esa kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishga, jumladan, og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu borada ularning matnlar va terminlar ustida ishlashi asosiy o'rin tutadi. Matnosti topshiriqlar matn bilan ishlash orqali kommunikativ-kognitiv bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llashga o'rgatishga qaratilmog'i zarur. Bu esa har bir darsga innovatsion yondashuvni taqozo etadiki, uni samarali amalga oshirish, avvalo, topshiriq va mashqlarning to'g'ri tuzilishiga va darsni tashkillashtirishga bog'liq.

Shu bois adabiy ta'limda asosan ma'naviy kamolotni yuksaltirishni o'z ichiga olgan materiallardan foydalanish, hikmatli so'zlardan misollar keltirish va ularning mazmunini sharhlash, muloqot doirasida dialogik va monologik nutqda faol qo'llashga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday mashg'ulotlarda nafaqat o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, balki ularda nutq kompetentsiyasini, tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirib shakllantirishga ko'maklashadi. Muammoli ta'lim texnologiyasi bilishga oid, ijodiy topshiriqlarni bilim va malakalarni oshirish orqali mustaqil bajarishni ko'zda tutadi, talabalarni ma'lum bir harakatlar tizimini shakllantirishga undaydi, muloqotda ijodiy muhitni yaratadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Berilgan vaziyat (holat)da yuzaga kelgan muammoni aniqlash.
2. Holatni tahlil qilish, muammoni ifodalash.
3. Muammoning yechimini topish.
4. Yechimning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash.

Muammoli vaziyatni hal qilish borasida o'quvchilarga matn beriladi va muammoni aniqlash, tahlil qilish, yechimini topishga yo'naltiriladi. *«Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi. Me'mor bunday binoni shoshilinch qurib bo'lmasligini qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nmabdi. Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'lib qolibdi. Yer-u ko'kni qidirib uni topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga:*

– Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming

*go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham balandroq ko'tarishim mumkin bo'lardi, – deb javob qilgan ekan».* Mavzu va asosiy fikrni aniqlang matnlar bilan tanishib, ushbu holatda qanday muammo borligini toping. Matnlarni davom ettirib, muammoning hal qilinishini ifodalang. Topshiriqni bajarishda «Kasbim mening-faxrim mening» mavzusi bo'yicha bilimlarini amalda qo'llaydilar, muammoning yechimini izlaydilar, uni muhokama qiladilar. Bu muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish bilan birga, xatti-harakatlarni asoslab berish malakalarini shakllantiradi. Shuningdek, matndagi suhbat ishtirokchilari sifatida muammoning yechimini topish kasbiy o'yinlar texnologiyasining elementlarini ham o'z ichiga oladi. Muammoli ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchilarning ishtiroki quyidagicha aks etadi:

1. O'qituvchi muammoni o'quvchilar bilan birga aniqlaydi, uning yechimini topadi va muhokama qiladi.

2. O'quvchi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoning yechimini o'zi topadi, o'qituvchi esa unga faqat yo'nalish beradi.

3. O'quvchi mustaqil ravishda muammoni topadi, o'qituvchi unga yechimni topishda yordam beradi.

4. O'quvchi muammoni o'zi aniqlaydi va uning yechimini ham mustaqil ravishda topadi. Muammoli ta'limning bu darajasi «keys-stadi» usuli deb ataladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasida tadqiqot usulini qo'llash ham o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Unda o'quvchi o'z bilimlarini o'zi kengaytiradi, ilmiy metodlarni o'rganadi va qo'llaydi, axborotni izlab topadi, uni saralaydi, xulosalar chiqaradi. Bularning barchasi o'quvchini faollashtiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, unda mas'uliyat, o'z ishidan qoniqish hissini paydo qiladi. Mustaqil tarzda olingan bilimlar yaxshiroq o'zlashtiriladi. Biroq, mazkur texnologiyani qo'llashda bir qator muammolar uchraydi, ulardan asosiysi o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham ko'p vaqt hamda sa'y-harakat, mas'uliyat, kreativlik talab qilinadi. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi topshiriqlar ularni kreativ faoliyatga o'rgatadi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Yuqoridagi matn asosida, quyidagi maqollardan foydalanib qanda matn tuzgan bo'lar edingiz?

*Bol tutgan barmog'ini yalar, Hunari bor — ermagini. Avval bil, keyin qil. Avval o'rgan, keyin o'rgat. Avom tabib — ofati jon. Aql ko'pga yetkazar, Hunar-ko'kka.*



Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarida foydalanib baholash mezonlari birmuncha qulay bo'lgan jadval tarzidagi topshiriqlarga misol keltiramiz. Chap ustundagi maqollarning birinchi qismiga o'ng ustundagi maqollar ikkinchi qismini topib, matn hosil qiling. Topshiriqning murakkabligi shundaki, chap tomondagi qismlarga mantiqan o'ng tomondagi qismlardan bir nechitasi to'g'ri kelishi mumkin.

Masalan:

Barakat — mag'izda,  
Hunarli qo'l — og'izda.

Behunaring hunari Yalqovlik.

Bilgan bilganin ishlar  
Bilmagan barmog'in tishlar.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning mantiqiy va nutqiy bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning bo'lg'usi faoliyatida malaka bilan ishlashga zamin yaratadi. Bu jarayonda, albatta, tajriba orttiriladi, ba'zan xatolarga ham yo'l qo'yiladi. Eng muhimi - o'quvchilarni kundalik muloqotga, fikrini to'liq va ravon ifodalashga, mustaqil fikrlashga hamda turli vaziyatlarda kasbiy kompetentsiyasini namoyish qila olishga o'rgatish zarur. Shu tariqa, ta'limning innovatsion texnologiyalari o'qituvchining faoliyatini quyidagi jihatlariga yo'naltiradi:

- murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish va muammolarni ijobiy hal qilish layoqatiga ega shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashish;
- ta'lim sub'ektlarining o'zaro munosabatlari xarakterini o'zgartirish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining hamkor ekanligini, bir maqsadga xizmat qilishlarini anglash;
- ta'lim jarayonining ko'p qirraliligi orqali o'quvchilarning ushbu jarayonga va fanga nisbatan motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta'lim jarayonini tashkillashtirish usullarini tubdan o'zgartirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish va joriy etishga e'tiborni kuchaytirish.

Innovatsiyalarning ta'limda qo'llanishi bugungi kunda ta'lim, fan va amaliyotning integratsiyasiga olib boruvchi asosiy yo'l ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bu esa innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishning asosiga aylanishi kerakligini anglatadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T., 2013. -55, 279-b.
2. M. Qodirpv, H.Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. 8-sinf darsligi.-T.,2019 "Cho'lpon".
3. R.Rasulova. (2020) Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodini o'qitishning samarali uslublari va yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish. science and education. 1(3)b.172-181